

**2026-2027-O'QUV YILIDA IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM
MUASSASALARI AGENTLIGI HUZURIDAGI AL-BERUNIY NOMIDAGI
XALQARO MAKTAB-INTERNATNING 9-SINFIGA QABUL IMTIHONI
UCHUN MATEMATIKA FANIDAN SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

**2026-2027-O‘QUV YILIDA IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM
MUASSASALARI AGENTLIGI HUZURIDAGI AL-BERUNIY NOMIDAGI
XALQARO MAKTAB-INTERNATINING 9-SINFIGA QABUL IMTIHONI
UCHUN MATEMATIKA FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Mazkur spetsifikatsiya Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab-internatining 9-sinfiga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha hujjat topshirgan nomzodlarning matematika fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonini va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – nomzod o‘quvchilarining matematika fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini amaldagi dasturlarda belgilangan o‘quv maqsadlari asosida kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab-internatining 9-sinfiga qabul qilish bo‘yicha qarorlar asoslangan (valid) bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashda validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me’yoriy asoslar

1. 1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi “Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-86-son Farmoni.

2. Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab-internati Kuzatuv kengashi yig‘ilishining 2026-yil 21-yanvardagi 8-son bayoni asosida tasdiqlangan “Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab-internatiga o‘quvchilarni saralab olish va qabul qilish bo‘yicha tartib” asosida.

3. Matematika fanidan umumiy o‘rta ta’limning 6-7-8-sinflar uchun amaldagi o‘quv dasturi.

III. Baholash qamrovi va ajratilgan vaqt

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab internatining **9-sinfiga** o‘qishga qabul sinovi **2 bosqichda** amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda o‘quvchilarining matematika fanini bilish darajasini aniqlash uchun jami **20 ta yopiq test topshirig‘i**, ikkinchi bosqichida esa

5 ta yozma topshiriq taqdim etiladi. Birinchi bosqichdagi topshiriqlarni bajarish uchun **50 daqiqa**, ikkinchi bosqichda esa **45 daqiqa** vaqt berilgan. Test topshiriqlarining mazmun sohasi, baholanadigan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvallarda aks etgan:

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. Sonlar va amallar		4 ta
1.1. Kvadrat ildiz va irratsional ifodalar.	Kvadrat ildiz ostidagi ko‘paytuvchini ildizdan chiqara oladi va ko‘paytuvchini kvadrat ildiz ostiga kirita oladi; Bo‘linma va darajaning kvadrat ildizi tushunchalarini, ularning xossalarini misollar yechishda qo‘llay oladi; Kasr maxrajini irratsionallikdan qutqara oladi;	1
1.2. Natural va ratsional ko‘rsatkichli daraja.	Bir xil ko‘rsatkichli darajalarni ko‘paytira olish, bo‘la olish, darajalarni o‘z ichiga olgan ifodalarni ayniy almashtira olish;	1
1.3. Sonli ketma-ketliklar	Berilgan yoki o‘zi tuzgan qonuniyat asosida ketma-ketliklarni tuzadi va ketma-ketlikdagi qonuniyatni aniqlab, tushirib qoldirilgan hadlarni aniqlay olish;	2
2. Algebra va funksiyalar		9 ta
2.1. Algebraik ifodalarni soddalashtirish	Berilgan algebraik ifodalarning xossalarini qo‘llab, o‘xshash hadlarni ixchamlay olish, qisqa ko‘paytirish formulalaridan foydalanib, ko‘phadlar ustida amallarni va algebraik ifodalar ustida shakl almashtirishlarni bajara olish;	1
2.2. Kvadrat tenglama va tengsizliklar	Chiziqli tenglamalar sistemasini o‘rniga qo‘yish, algebraik qo‘shish va nostandart usullarni misollar hamda amaliy masalalar yechishda qo‘llay olish. Kvadrat tenglama ildizlarini topish formulasi yordamida yechish, Viyet teoremasi va unga teskari teoremani qo‘llab, keltirilgan kvadrat tenglamalarni yecha olish. Sonli tengsizliklar haqida ma’lumotga ega bo‘lish, qat’iy va noqat’iy tengsizliklarni ajrata olish hamda oraliqlarda yechimini aniqlay olish. Kvadrat tenglamaga doir nostandart masalalarni yecha olish. O‘rganilgan tushunchalar, faktlar va metodlarini notanish yoki hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish va yangi bilimlar hosil qila olish.	3
2.3. Nisbat va proporsiya	Foiz va nisbat qatnashgan amaliy masalalarni yechishda masalaning matematik modelini yarata	2

	<p>olish, tenglamalar tuzib, noma'lum parametrlarni aniqlay olish.</p> <p>Bajarilgan ishga oid nostandart masalalarni yechishda masalaning matematik modelini yarata olish, tenglamalar tuzib, vaziyatni baholay olish, tahlil qila olish va xulosa chiqarish.</p> <p>Aralashmaga oid matnli masalalarni yechishda proporsiyadan foydalana olish.</p>	
2.3. Harakatga oid masalalar	Bosib o'tilgan masofani, harakat tezligini va vaqtini topishga doir matnli masalalarni yechishda umumiy qoidalarni qo'llay olish.	1
2.4 Funksiya, uning xossalari va grafigi	Chiziqli funksiyaga keltiriladigan amaliy masalalar va ularni grafiklar yordamida tahlil qila olish (harakat grafigi yoki temperaturalarning o'zgarishi); funksiyalarga doir murakkabroq va nostandart masalalarni yecha olish va grafikka qarab baholay olish.	1
2.5. Matnli masalalar	Nostandart masalalarni yechishda masalaning matematik modelini yarata olish, tenglamalar tuzib, vaziyatni baholay olish, tahlil qila olish va xulosa chiqarish.	1
3. Statistika va ehtimollik		3 ta
3.1. Ma'lumotlar va ehtimollik	<p>Jadval va diagrammalardagi ma'lumotlarni tahlil qila olish; Moda, mediana va o'rta qiymatini topish va bir-biridan farqlay olish hamda amaliy masalalarda (hayotiy vaziyatlarda) statistik ko'rsatkichlarni qo'llay olish.</p> <p>Kombinatorikaga oid amaliy masalalarni yechishda qo'shish va ko'paytirish qonunlaridan asosli ravishda foydalanish, tahlil qilish va xulosa chiqarish.</p>	3
4. Geometriya va o'lchashlar		9 ta
4.1. Geometriya va o'lchov	<p>Aylanaga ichki chizilgan burchak va markaziy burchak orasidagi munosabatni bilish.</p> <p>Aylana tenglamasini keltirib chiqara olish va tenglama yordamida aylananing markazi va radiusni aniqlay olish.</p> <p>Ko'pburchak diagonallari soni va ichki burchaklar yig'indisi formulalarini qo'llab, berilgan masalani yecha olish.</p> <p>To'g'ri burchakli uchburchakka oid masalalarni yechishda Pifagor teoremasidan foydalana olish.</p> <p>30°, 45°, 60° li burchaklarning sinusi, kosinusi,</p>	9

	<p>tangensi va kotangensi qiymatini geometrik masalalar yechishda qo‘llay olish.</p> <p>Uchburchak yuzini hisoblash formulasini masalalar yechishda foydalana olish.</p> <p>Parallelogramm va romb yuzini hisoblash formulasini masalalar yechishda qo‘llay olish, bir kattalik bilan ikkinchisini ifodalay olish.</p> <p>Trapetsiya yuzini hisoblash formulalarini umumiy xossalari bilan bog‘lab, masalalar yechishda qo‘llay olish.</p> <p>Murakkab shaklning yuzini topishga doir nostandart masalalarni yechishda sodda shakl yuzini topish qoidalarini qo‘llay olish, asoslay olish va xulosa chiqara olish.</p> <p>Kub va kuboidning hajmini topishga doir bir necha bosqichli masalalarni yechishda mos formulalarni qo‘llay olish va xulosa chiqara olish.</p> <p>Uchburchak yuzini hisoblash formulasini keltirib chiqara olish; Uchburchakning to‘rtta ajoyib nuqtalari: uchburchak medianalari, bissektoralari, balandliklari va tomonlari o‘rtasiga tushirilgan perpendikulyarlar kesishish nuqtalari haqida ma’lumotga ega bo‘lish va ulardan masalalar yechishda foydalana olish;</p> <p>Ko‘pburchakka ichki va tashqi chizilgan aylana radiuslari orasidagi munosabat formulalarini keltirib chiqara olish, notanish vaziyatlarda qo‘llay olish va yangi bilimlar hosil qila olish.</p>	
--	---	--

IV. Kognitiv ko‘nikmalar bo‘yicha taqsimot

Topshiriqlar uchun belgilangan ballar ularning murakkablik darajasini, bajarishda talab etiladigan bilim, ko‘nikma va mantiqiy fikrlash hajmini hisobga olgan holda belgilangan.

Test topshiriqlarining kognitiv ko‘nikmalar va baholash mezoni bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Kognitiv daraja	Izohi	Testlar soni (ta)
------------------------	--------------	--------------------------

(topshiriq toifasi)		
Bilish (A)	Reproduktiv darajadagi topshiriqlarining mazmuni o'quvchilar tomonidan o'quv materiali qayta ishlanmasdan, ularning xotira qobiliyatini aniqlovchi, qonuniyatlar, xossalalar, formula, tushuncha va atamalarning mohiyatini bilish, yodda saqlash va tanish, odatiy vaziyatlarda qo'llashga qaratilgan	4
Qo'llash (B)	Produktiv o'quv topshiriqlarining o'quvchilar tomonidan o'rganilgan qoidalar va formulalarni tanish vaziyatlarda qo'llashni talab etadi. Ushbu topshiriqlarda o'quvchilar berilgan ma'lumotlar asosida sodda hisob-kitoblarni bajaradi, standart shakldagi masalalarni yechadi hamda formula yoki qoidani to'g'ridan to'g'ri qo'llaydi.	4
	Produktiv o'quv topshiriqlari o'quvchilardan o'rganilgan qoidalar va formulalarni bir nechta bosqichdan iborat hamda qisman noodatiy vaziyatlarda ongli ravishda qo'llashni talab etadi. Ushbu topshiriqlarda o'quvchilar masala shartini tahlil qiladi, mos yechim usulini tanlaydi, bir nechta formulalar yoki qoidalarni ketma-ket va mantiqiy bog'liqlikda qo'llaydi hamda yechim jarayonida oraliq xulosalar chiqaradi.	8
Mulohaza (C)	Intellektual darajadagi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilim, va ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llash, tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun va qonuniyatlarni qo'llab, umumlashtirishni talab qiladi	4

V. Baholash shakli

O'quvchilarning matematika fanini bilish darajasi birinchi bosqichda **34 ball** bilan, ikkinchi bosqichda esa **35 ball** bilan baholanadi. Har bir bosqichda baholanadigan mazmun soha, kognitiv jarayonlar va baholash mezoni quyidagi jadvallarda berilgan.

Birinchi bosqichda baholanadigan mazmun soha, kognitiv jarayonlar va baholash mezoni

Topshiriq tartib raqami	Mazmun sohasi	Topshiriq toifasi	Ball
1	Sonlar va amallar	A	1.1
2		A	1.1
3		A	1.1
4		B	2.1
5	Algebra va funksiyalar	B	1.1
6		B	1.1
7		B	1.1
8		B	2.1
9		B	2.1
10		B	2.1
11		C	2.1
12	Statistika va ehtimollik	B	2.1
13		C	2.1
14	Geometriya va o'lchashlar	A	1.1
15		B	1.1
16		B	2.1
17		B	2.1
18		B	2.1
19		C	2.1
20		C	2.1
Jami			34 ball

Ikkinchi bosqichda baholanadigan mazmun soha, kognitiv jarayonlar va baholash mezoni

2-jadval

Topshiriq tartib raqami	Mazmun sohasi	Topshiriq toifasi	Baholash mezoni
1	Matnli masalalar	B	0-5 ball
2	Funksiya, uning xossalari va grafigi	C	0-7 ball
3	Kombinatorikaga oid masalalar	C	0-8 ball
4	Uchburchaklar va ularning xossalari	C	0-7 ball
5	Ko'pburchaklar va ularning xossalari	C	0-8 ball
Jami			35 ball

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. AHA Matematika 6-sinf I va II qism darslik va mashq daftari E.Ch. Chun Ming “Novda” 2024.
2. Geometriya 7-sinf darslik. B.Xaydarov (va boshqalar). Toshkent 2022.
3. Algebra 7-sinf darslik. A. Akmalov (va boshqalar). Toshkent 2022.
4. Algebra 8-sinf darslik. Sh.A.Alimov, O.R.Xolmuhammedov. Toshkent 2019.
5. Geometriya 8-sinf darslik. A.A.Rahimqoriyev, M.A.To‘xtaxo‘jayeva. Toshkent 2019.